



IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILAR UCHUN IXTISOSLASHTIRILGAN MAXSUS MAKTAB-INTERNATDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKA

Ramazonov Jahongir Djalolovich

p.f.f.d (PhD), dotsent.

Jafarova Dilfuza Baxtiyeroyna

Osiyo Xalqaro universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14498468>

Annotatsiya: Ushbu maqolada alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar orasida olib boriladigan pedagogik-psixologik diagnostic va korreksion faoliyat haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, psixoprofilaktika, diagnostika, korreksiya, muammoli o'quvchi.

Barchangizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 25- yanvar 46-sonli "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim olishlarini tashkil etish va reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyihasi e'lon qilindi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ruhiy salomatligini yaxshilash, ularga imkon doirasida bilim berish, yozma va og'zaki nutqni rivojlantirish, o'z-o'zini boshqara oladigan , jamiyat a'zosi sifatida mustaqil harakanlana olish va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish, yashirin qobiliyatlarini ochish va kasb egallashini ta'minlash, ularga maxsus va chuqurlashtirilgan tayyorgarlikni talab etmaydigan kasb va hunarlarni o'rgatish maslasiga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.


2024 yil 1 avgustdan boshlab Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlar, ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari Ijtimoiy himoya milliy agentligi tuzilmasiga o'tkazilishi belgilandi.

Quyidagilar Maktab-internatining asosiy vazifalari hisoblanadi:

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish maxsus o'quv dasturlari talablari asosida bilim olishni ta'minlash;

shaxsga va ijtimoiy yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quvchilarning eng maqbul rivojlanishini ta'minlash maqsadida tabaqalashtirilgan va individual ta'limni tashkil etish;

shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy hayotda va mehnat faoliyatida xulq-atvorning eng maqbul modelini shakllantirish orqali shaxsni tarbiyalash;





o'quvchilarni umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim sharoitida o'qishga tayyorlash;

o'quvchilarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi, hayotiy qobiliyatlarining shakllanishi uchun zarur korreksion (tuzatuvchi) – rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish;

o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida ularning psixik funksiyalari va salomatligi tizimli tarzda kuzatilishini tashkil etish.


Maktab-internatining pedagog-o'qituvchilari o'zlariga yuklangan majburiyatlardan tashqari shaxsni shakllantirish va nuqsonlarini korreksiyalash, jismoniy va psixik nuqsonlarini bartaraf etish, nuqsonlar bilan bog'liq bo'lgan bilish faoliyatidagi o'ziga xosliklarni me'yorga keltirish, bilimga oid qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish sohasida ish olib boradilar.

Maktab-internatining tarbiyachisi rivojlanishdagi nuqsonlarni korreksiyalash ishlarida o'qituvchi ishlarini davom ettiradi, jismoniy yoki psixik nuqsonlar sababli yuzaga keladigan psixik yoki jismoniy rivojlanish xususiyatlarini e'tiborga olgan holda o'quvchilarga individual yondashuvni amalga oshiradi, o'z guruhidagi o'quvchilarning hayoti va salomatligi saqlanishi uchun javob beradi.

Yuqorida ko'rsatilgan talab va vazifalar asosida ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda o'quvchilarning rivojlanish va korreksion faoliyatlar monitoringi olib boriladi. Buxoro shahar 27-son alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktab-internatda 2011 /2012 o'quv yilidan buyon o'quvchilarni o'rta maktabga chiqarish va sog'lomlashtirish borasida talaygina ishlar qilin kelinmoqda. Maktab-internat da 25 yildan buyun faoliyat olib borayotgan o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Salixova Feruza Nuraliyevna bu borada ko'zga ko'rinadigan darajada ijobiy ishlar olibbormoqda. O'quvchilarni bilish faoliyatini rivojlantirish va korreksiyalash orqali Inklyuziv ta'limga jalb etib kelmoqda.

Inklyuziv ta'limga jalb etish monitorngi

№	O'quv yili	Inklyuziv ta'limga jalb etilgan o'quvchilar soni
1	2011-2012 o'quv yili	10 nafar
2	2012-2013 o'quv yili	42 nafar
3	2013-2014 o'quv yili	11 nafar
4	2014-2015 o'quv yili	19 nafar
5	2015-2016 o'quv yili	20 nafar





6	2016-2017 o'quv yili	14 nafar
7	2017-2018 o'quv yili	22 nafar
8	2018-2019 o'quv yili	19 nafar
9	2019-2020 o'quv yili	14 nafar
10	2020-2021 o'quv yili	13 nafar
11	2021-2022 o'quv yili	22 nafar
12	2022-2023 o'quv yili	17 nafar
13	2023-2024 o'quv yili	12 nafar
14	2024-2025 o'quv yili	7 nafar

Maxsus maktab –internatlarda o'quvchidagi 80% korreksiyaning o'qituvchi-pedagoglar dars jarayonida amalga oshiradi. O'quvchining og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, xulq-odobini tog'ri yo'naltirish, o'quvchining bo'sh vaqtini ijobiy faoliyat va mashg'ulotlar bilan band etish maktab-internatning eng muhim talabidir. O'qituvchi va tarbiyachilar olib boradigan ish faoliyatlari doimo nazoratda , sof raqobat bo'lishi uchun pedagogik va psixologik diagnostik ishlar olib borildi. Buxoro shahar 27-son alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktab-internatida har yili yil boshi va yil oxirida 2-4 sinf o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi, psixologik bilish darajasi o'rganiladi. Bu diagnostika natijalarini quyidagi jadval asosida ko'rib chiqamiz. Ushbu natijalar yil oxirida IV chorakda qayta ko'rib chiqililadi va taqqoslanadi. Natijada pedagogning korreksion faoliyati va samaradorligi yaqqol namoyon bo'ladi.

2024-2025 o'quv yili oktabr holatida 2-4 sinf o'quvchilari orasida o'tkazilgan o'zlashtirish va bilish jarayonlari diagnostikasi

Og'zaki nutq (2-4 sinfalar)

Sinfi	Bola soni	Sinf rahbar	Ravon o'qiydi	Bo'g'inlaydi	Harf taniydi	Harf tanimaydi Og'zaki nutq bor	O'zlashtirish past (Murakkab nuqsonli)	Diagnostic o'rni
2-a	14	Hafizova Nasiba	1	4	-	3	6	
2-b	17	Razzoqova A	3	2	3	4	5	1
2-v	14	Nurilloeva M	2	3	5	2	2	
3-a	16	Bafoyeva Farida	2	4	5	2	3	
3-b	14(1)	Muhiddinova L	3	4	3	1	3	1
3-v	17	Rajabova S	1	6	2	2	5	



4-a	16	Qodirova Sh	10	3	2	-	1	1
4-b	14	Ravshanova G	3	4	4	2	1	
4-v	15(1)	Safarova G	4	3	3	2	3	
Jami:			27	35	27	18	22	


Yozma nutq

Sinfi	Bola soni	Sinf rahbar	Mustaqil yozadi	Endi harf yozayпти	Qalam usti	Element yozadi, boyaydi	O'zlashtirish past (Murakkab nuqsonli)	Diagnostic o'rni
2-a	14	Hafizova Nasiba	3	3	1	3	4	
2-b	17	Razzoqova A	4	3	3	2	5	1
2-v	14	Nurilloeva M	2	-	8	3	1	
3-a	16	Bafoyeva Farida	6	3	5	-	2	
3-b	14(1)	Muhiddinova L	7	-	3	3	1	1
3-v	17	Rajabova S	3		7	1	6	
4-a	16	Qodirova Sh	8	1	5	1	1	1
4-b	14	Ravshanova G	3	-	5	3	3	
4-v	15(1)	Safarova G	5	-	1	3	5	
Jami:			41	10	38	19	28	

Psixologik bilish faoliyati diagnostikasi asosan psixolog tomonidan olib borilishi lozim. Maxsus maktab-internat psixologi tomonidan har bir o'quvchiga individual yondashgan holda o'quvchining psixik xususiyatlari o'rganiladi. Xuddi shu diagnostika har yil o'tkaziladi va shunga qarab tavsifnoma uyoziladi.

O'quvchilarning bilish jarayonlari diagnostikasi

No	I.F.O	Diqqat	Xotira	Idrok	Nutq	Xulq atvor buzilishlarini ko'rsatish	Murakkab nuqsonli	Yaxshi o'zlashtirish va qobiliyatlari
1	Jalolov Dilshod	Diqqati tarqoq	Obrazli	Rang+ Shakl+ Hajm -	Duduqlan adi, mustaqil yozadi	-	Daun Zaif ko'ruvchi	-
2	Muborak ova Aziza	Diqqati tarqoq	Xotiras i past	Rang+ Shakl-	Ravon gapiradi,	Urushqoq	-	Chiroyli she'r ayta oladi





				Hajm-	qalam ustidan yozadi			
.	.	.	.	.	.	.	.	.

Yuqorida ko'rsatilingan diagnostikalar asosida har chorak uslubiy birlashmalarda seminarlar qo'yiladi. Tahliliy yig'ilishlar o'tkaziladi. Bunda nafaqat o'qituvchi, balki tarbiyachi-pedagog, psixolog, logoped, psixonevrologlar ham ham har tomonloma tahlil qilib, kuzatuvlar asosida o'rganib borishadi. Davolovchi jismoniy tarbiya, ritmika, musiqa, texnologiya va jismoniy tarbiya fan o'qituvchilari hamkorligida qo'shimcha mashg'ulotlarga jalb etiladi va bu natijalar yil so'ngida qayta ko'rilgan diagnostika bilan taqqoslanadi. Shu usulda bolalarda jiddiy rivojlanish va samarali korreksiya hosil bo'ladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir qilinga ishning samarasi va izi bo'lmog'i darkor. Alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan(aqli zaif) bolalar bilan o'ziga xos sabr va mahorat talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy psixologiya. A.V.Petrovskiy tahriri ostida 3-qayta ishlangan va to'ldirilgan ruscha nashr tarjimasi. - Toshkent.: O'kituvchi.1992
2. Umumiy psixologiyadan amaliy mashg'ulotlar. A.I.SHcherbakov tahriri ostida- T.: O'kituvchi, 1984
3. SHoumarov G.B. Psixologiya fani: YAngiliklar, muammolar, echimlar. "Ma'rifat"ro'znomasi, 12 oktyabr, 1996 y.
4. G'oziev E.G'."O'quvchilarni o'quv faoliyatini boshqarish" T. 1998y.
5. Usmonova E.Z. "O'quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday shakllantirish mumkin?" T. 2000y.
6. Ramazonov, J. (2022). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ТАЛАБАЛАР ЎЗИНИ ЎЗИ ИДОРА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК МЕХАНИЗИМЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 9(9).

